

## O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATLARIDAGI AKT TERMINLARINING ETIMOLOGIK TAVSIFI

*Amrullayeva Mohinur Jo'rabeq qizi*  
[mohinuramrullayeva045@gmail.com](mailto:mohinuramrullayeva045@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek tilining izohli lug'atlaridagi axborot kommunikatsiya texnologiyalari terminlarining etimologik tavsifi va xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari terminlarini o'zbek tiliga juda ulkan qismini boshqa tillardan o'zlashgan leksik birliklar tashkil qiladi. Axborot bilan faol almashinuv, jamiyatning axborotlashuvi hodisasiidagi global xususiyati, axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi mutaxassislar lingistik-terminologlar va tarjimonlarning hamkorligi baynalminallashuv jarayonlarini kuchaytiradi. Natijada chet tilida ko'pgina terminlar boshqa tillarga o'tadi, so'ng baynalminal terminga aylanadi va milliy terminologiya ham o'ziga xos o'rniga ega bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tilinining izohli lug'ati, o'zlashma so'zlar, televizor, telefon, telefonogramma.

Barcha tillarning rivojlanish qonuniyatiga ko'ra tilda mavjud leksika savdo sotiq, diplomatik aloqalar orqali boshqa tillardan o'zlashish hisobiga boyib boradi. Shuningdek, "...respublikamiz hayotining barcha sohalarida yuz berayotgan katta o'zgarishlar, rivojlangan juda ko'p mamlakatlar bilan aloqlarning tobora kuchayib borayotganligi qisqa vaqt mobaynida o'zbek tili, xususan, uning leksikasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi"<sup>1</sup>.

O'zlashma so'zlarning faollik darajasi ortishi tufayli o'z qatlama so'zlar chet tilidan o'zlashgan so'zlarga o'z o'rnini bo'shatib berishi tabiiy hodisa. Bu jarayon terminologiyada ham o'z aksini topadi. Zero, terminlar tizimining xalqaro mezonlarga moslashtirilishi hodisasi terminologiyadagi milliy so'zshakllardan ko'ra umume'tirof etilgan baynalmilal birliklarning qo'llanish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

O'zlashma so'zlarning faollik darajasi ortib borishi tufayli o'z qatlama so'zlar chet tilidan o'zlashgan so'zlarga o'z o'rnini bo'shatib berishi tabiiy hodisa. Bu jarayon terminologiyada ham o'z aksini topadi. Zero terminlar tizimining xalqaro mezonlarga moslashtirilishi hodisasi terminologiyadagi milliy so'z shakllardan ko'ra umume'tirof etilgan baynalmilal birliklarning qo'llanish darajasini oshirishga xizmat qiladi. O'zbek tilining 2 tomli izohli lug'atida lotin, fransuz, nemis, grek tillaridan o'zlashgan barcha terminlar rus tili orqali o'zlashganligi ta'kidlangan va, avvalo, rus tili, so'ngra so'zning asl kelib chiqish manbayi bo'lgan til ko'rsatilgan. Axborot-kommunikatsiya

<sup>1</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati, 5 jildli 1-jild. – Toshkent. O'zbekiston ensiklopediyasi, 2006.

texnologiyalaridagi zamonaviy so‘zlar hozirgi kunda to‘g‘ridan to‘g‘ri ingliz tili orqali kirib kelayotganiga guvoh bo‘lamiz. Leksikondagi terminlar til tizimida alohida o‘rin tutadigan o‘ziga xos qatlam. Buning sababi shundaki, u umumiste’mol leksikadan yaqqol ajralib turadigan uslubiy, semantik, struktur va so‘z shakllanishiga oid o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Zamonaviy ijtimoiy hayotda zamonaviy so‘z rolining oshishi yildan yilga tobora ravshanlashib bormoqda hamda shu bilan shaxslar bu so‘zlarni chuqurroq bilib borayotgani va xalqaro aloqalarni yanada kengaytirayotganligini bizga ko‘rsatmoqda. Har bir inson xohlasa-xohlamasa, hamisha qaysidir zamonaviy so‘zdan foydalanish jarayonning ishtirokchisi. Demak, Axborot kommunikatsiya terminologiyasiga oid bilimlarga doimiy ehtiyoj mavjud ekan, bu sohaga oid terminlarni tizimlashtirgan holda o‘rganish, uni lug‘atlarda berish, butun terminologik tizim ichidan umumiyligi filologik lug‘atlar uchun tanlab olish tamoyillarini ishlab chiqish nafaqat tilshunoslik, balki jamiyat hayotining yanada ildamlashiga mas’ul har bir soha uchun ahamiyatli.

Boshqa tillardan kirib kelgan terminlar ma’lum bir lingvistik xususiyatlarga ega bo‘lgandagina ularga o‘zlashma terminlar sifatida qarash mumkin. Bunday xususiyatlar quyidagilar:

- a) chet tilidagi so‘zning o‘zlashtirayotgan tildagi grafik va fonetik vositalar bilan ifodalanishi;
- b) o‘zlashma so‘zning o‘zlashtirayotgan til grammatik shakl va kategoriyalari bilan uyg‘unlashishi;
- c) o‘zlashmaning semantik mustaqilligi;
- d) o‘zlashma terminning muayyan terminologik sistemada doimiy ravishda qo‘llanilishi.<sup>2</sup>

Bilimlarning muayyan sohalarida milliy terminologiyani shakllantirish zarurati, yangi hodisani belgilashda o‘tkir zarurat tug‘ilganda olinma terminlarni jalb etmay iloji yoq. AKT sohasidagi o‘zlashtirilgan terminlarining aksariyat qismi orfografik jihatdan barqaror, faqat ayrim hollardagina o‘zlashtirilgan terminning grafik qiyofasi o‘zgarishi kuzatiladi.

S.V. Grinev chet tilidan o‘zlashtirishning quyidagi sabablarini ko‘rsatadi:

- 1) o‘zlashtirayotgan tilda yangi tushuncha uchun mos so‘zning yo‘qligi (o‘zlashtirishning asosiy sababi);
- 2) tasvirlovchi ibora o‘rniga bir so‘zdan foydalanish tendensiyasi;
- 3) o‘zlashtirayotgan tilda omoniya va polisemiyani bartaraf etishga intilish;
- 4) tegishli va ma’noni detallashtirishga ehtiyoj;
- 5) tub terminlardan hosila yashashning mumkin emasligi.<sup>3</sup>

O‘zlashtirayotgan tilda u yoki bu mavzuviy soha, professional muhitga xizmat

<sup>2</sup> Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi O ‘zbek adabiy tili. Leksikologiya. Fonetika. Morfologiya. – Toshkent.: O ‘qituvchi. 1975. – B.46.

<sup>3</sup> Qarang: Гринев С.В. Введение в терминоведение. – М., 1993 –С. 161.

ko‘rsatuvchi va ushbu terminlar o‘zlashtirilishi manbasi bo‘yicha qaysidir darajada bir xil bo‘lgan terminlar tizimlari mavjud bo‘lishi xam zaruriy omil hisoblanadi. AKT terminologiyasi elektron hisoblash texnikasi terminologiyasi asosida yuzaga kelgan va faqat keyingi yigirma yil mobaynida nisbatan mustaqil bo‘ldi. Elektron hisoblash texnikasining o‘zbek terminologiyasi o‘z tarkibiga inglizcha terminlarni kiritgan bo‘lsada, biroq ularning soni o‘zbek AKT terminologiyasida bo‘lgani kabi ko‘p bo‘lmagan. O‘zbek tilida elektron hisoblash texnikasining leksikasi shakllanib ulgurgan va muvaffaqiyatli ishlatilayotgan milliy termin tizimining borligi o‘zbek tili substratiga yangi terminlar kirishi va assimilyatsiyasi jarayonini osonlashtiradi.

O‘zbek tilining katta hajmli AKT terminologiyasida asosiy va umumiy deb qaralgan – o‘zbek tilining izohli lug‘atiga kiritilgan axborot kommunikatsiya texnologiyalari terminlarining etimologik xususiyati bo‘yicha tasnifi quyidagicha:

- sof o‘zbekcha;
- arabiyl;
- rus tilidan yoxud rus tili orqali o‘zlashgan (internatsional);
- fransuz tilidan o‘zlashgan;
- nemis tilidan o‘zlashgan;
- yunon tilidan o‘zlashgan
- italyan tilidan o‘zlashgan;
- lotin tilidan o‘zlashgan;
- ingliz tilidan o‘zlashgan.

Quyida 5 jildli O‘TILda mavjud AKT terminlarining yuqoridagi tasnif bo‘yicha tahlilini ko‘rib o‘tamiz:

**Arab tilidan olingan (asosi arabcha) so‘zlarning termin sifatida berilishi: axborot, aloqa**

**Fransuz tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi:** *abonnement, abonent, kasseta, kod, patefon, signalizatsiya.*

**Nemis tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi:** *klaviatura, kolontitul, kolonsifra, rolik, signal, shrift.*

**Lotin tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi:** *antenna, apparat, video, vibrator, vibratsiya, informatsiya, informatika, klavish, kommunikatsiya, kopiya, korpus, kursiv, lokatsiya, radio, radiola.*

**Yunon tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi:** *grafik, kserografiya, kserokopiya, megafon, mikrofon, telefon, texnologiya, texnika, foto.*

**Ingliz tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi:** *internet, kartrij, monitor, noutbook, printer, radar, skaner, toner, disketa, kompyuter*

**Rus tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi:** *pryomnik, naushnik, ustyanovka, diskovod.*

**Golland tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi:** *knopka.*

### **Italyan tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi: trubka.**

Shuni alohida qayd etish lozimki, ilmiy-texnika terminologiyasida, xususan, AKT sohasida qo‘llanilayotgan baynalmilal termin-nomlarning asosiy qismi o‘zbek tiliga ingliz tilidan rus tili (vositachi til) orqali o‘zlashmoqda. Shu sababdan ham mazkur terminlarning rus tilidagi shakli tilimiz uchun ham qabul qilingan me’yordek bo‘lib qolgan. Biroq, o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyati hamda tilimizdagi ba’zi so‘zlarning funksiyasi, ya’ni termin-nomlarga o‘z tilimiz nuqtai nazaridan yondashish va kerakli o‘rinlarda ma’lum o‘zgartirishlarni kiritish ham talab etiladi<sup>4</sup>

AKT terminolijyasida o‘zlashtirilgan terminlarning ko‘p qismi etimologik nuqtai nazardan lotin va yunon tillariga ham mansub. Masalan, *radio termini lotin tilida radius-aylananing markazidan uning sathigacha o‘tkazilgan to‘g‘ri chiziq ma’nosini anglatadi.*

O‘zlashmalardan yangi AKT terminlarini hosil qilish turli usullarda amalgalashiriladi. O‘zbek tilida til boyishining ichki imkoniyatlari asosida yoki turli tildan o‘zlashgan so‘zlarning kombinatsiyasidan yoxud ularni juftlash yordamida hosil bo‘lgan terminlar ham mavjud:

1) o‘zlashgan terminga o‘zbekcha affikslar qo‘shiladi va yangi termin hosil qilinadi: *kompyuter + -chi* → *kompyuterchi. kod + -lash- kodlash.*

2) o‘zlashgan terminga o‘zbek tilidagi o‘zlashgan affiks, affiksoid yoki prefiks, prefiksoid qo‘silib yangi termin hosil qiladi: *no- + -aktiv* → *noaktiv + -lik - noaktivlik;*

3) o‘zlashgan termin va tub turkiy so‘z qo‘silib yangi birikma termin yasaladi: *uyali telefon, kompyuter boshqaruvi, impuls kuchaytirgich, progressiv yoyilish.*

4) bir tildan o‘zlashgan ikki leksema ishtirokida yangi termin paydo bo‘ladi: *internet-biznes (ingl. + ingl.), internet-provayder (ingl. + ingl.), kontrol-blok (ingl. + ingl.);*

5) manbaga ko‘ra ikkita boshqa-boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlardan yangi termin hosil qiladi: *internet-tijorat (ingl. + arab), internet- hujjat (ingl. + arab), radiochastota (lotin + rus);*

6) o‘zlashma termin va turkiy so‘zdan yasalgan qo’shma so‘z terminlar: *radiotutish (lotin + turk.), radiochaqiriq (lotin + turk).*<sup>5</sup>

2 tomli O‘TILda mavjud huquqiy terminlarning tahlili quyidagi natijalarni berdi.

**Arab tilidan olingan (asosi arabcha) so‘zlarning termin sifatida berilishi: axborot, aloqa,**

**Fransuz tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi:patefon**

**Rus tilidan olingan so‘zlarning termin sifatida berilishi: avtoblokirovka,**

<sup>4</sup> Kadirbekova.D. Inglizcha-o‘zbekcha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari.diss.-toshkent,2017. – B. 104.

<sup>5</sup> Kadirbekova.D. Inglizcha-o‘zbekcha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari.diss.-toshkent,2017. – B .105.

*avtomatik, avtomatika, avtomatizm, avtomat, antenna, apparat, apparatura, grafika, informatsion, kartina, kasetta, knopka, klavish, klaviatura, kommunikatsion, kommunikatsiya, operativ, televizor, trubka, ustanoftka...*

O‘zbek tilining 2 tomli izohli lug‘atida lotin, ingliz, fransuz, nemis, yunon tillaridan o‘zlashgan barcha terminlar rus tili orqali o‘zlashganligi ta’kidlangan va avvalo, rus tili so‘ngra so‘zning asl kelib chiqish manbai bo‘lgan til ko‘rsatilgan:

**TELEVIZOR** [r<grek+lat]: Televideniye orqali uzatilgan signallarni tasvir va ovoz tarzida qabul qilib ko‘rsatadigan va eshittiradigan apparat<sup>6</sup>.

**TELEFON** [r<grek]: Elektr aloqa turlaridan biri – uzoqdan turib so‘zlashishga xizmat qiladigan qurilma va uning signal zvonogi hamda gaplashish trubkasi bo‘lgan apparati<sup>7</sup>.

**TELEFONOGRAMMA** [r<grek]: Telefon orqali eshitib yozib olingan xabar yoki ma’lumot<sup>8</sup>.

E’tirof etish mumkinki, yangi ko‘p jildli izohli lug‘atni tuzishda 1981-yilda nashr etilgan ikki tomli izohli lug‘at materiallaridan foydalanilgan. Lekin u ikki jildli lug‘atning to‘ldirilgan yoki qandaydir o‘zgartishlar bilan qayta ishlangan nashri emas, balki leksikografiyaning yangi yutuqlarini hisobga olgan holda yaratilgan mutlaqo yangi lug‘at. Qolaversa, o‘zbekcha yoki umumturkiy bo‘lmagan so‘z va terminlarga (arabcha, forscha, baynalmilal, ruscha va boshqa tillarga mansub so‘zlarga) mumkin qadar to‘liq etimologik ma’lumot berish kabilar ham ushbu lug‘atning o‘ziga xos xususiyatlaridan. U hozirgi o‘zbek tili leksikasining holatini va rivojlanish tamoyillarini hisobga olgan holda yaratilgan<sup>9</sup>.

Ko‘rish mumkinki, ikki tomli va besh jildli o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida AKT terminlarining genetik xususiyatlari talqinida farqlar mavjud. Xusan, besh jildli O‘TILda AKT terminlarning qaysi tildan olinganligi haqida aniqroq tasavvur olish mumkin.

Har ikkala O‘TILda ham genetik jihatdan ingliz va rus tiliga mansub birliklar yetakchilik qiladi. Bu soha terminlarining aksariyati o‘zlashmalar ekanligini inkor etmagan holda sof o‘zbekcha so‘zlarning salmog‘ini oshirish xalqimizning o‘z tilidan kengroq va soha tili sifatida foydalanish qamrovini oshirishiga xizmat qilishini ta’kidlash lozim. Albatta, O‘TIL keng xronologik doirada o‘zbek tilining butun so‘z boyligini emas, balki hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilining keng iste’moldagi so‘z boyligini to‘plash va tavsiflashni o‘ziga maqsad qilib qo‘yadi<sup>10</sup>.

Bugungi kunda genetik jihatdan sof o‘zbek tiliga oid birliklarning termin sifatida qo‘llanish holati navbatdagi izohli lug‘at uchun manba bo‘lishiga ishonamiz. Zero,

<sup>6</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 tomli. 2-tom. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1981, B.157.

<sup>7</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 tomli. 2-tom. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1981, B.158.

<sup>8</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 tomli. 2-tom. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1981, B.158.

<sup>9</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B.8.

<sup>10</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B.6.

terminga aylanib ulgurayotgan *sichqoncha, qulogchin, quvvatlagich, qurilma...* kabi kabi birliklarni lug‘atlarda aks etib, AKT amaliyotida qo‘llaninib, AKT jarayonlarga faol kirib borganda tilimizning keng imkoniyatlarini namoyon qilgan bo‘lamiz.

Etimologik tahlillardan shu aniq bo‘ladiki, axborot-kommunikatsiya terminlarining o‘zbek tiliga juda ulkan qismini boshqa tillardan o‘zlashgan leksik birliklar tashkil qiladi. H. Dadaboyev: “ ...o‘zbek terminologiyasi tizimida xorijiy tillarga taalluuqli tushunchalarni o‘z ichki imkoniyatlar asosida ifodalash tamoyili yetakchilik qilmoqda. Bunday jarayon paytida chetdan kelayotgan o‘zlashmalarning bir qismi o‘zbekcha mutanosiblari bilan almashtiriladi yoki tarjima qilinadi. Ushbu usul yangi tushunchalarni atashda o‘ta qulayligi bilan ajralib turadi”, deya ta’kidlaydi<sup>11</sup>.

So‘z o‘zlashtirish AKT terminlari shakllanishining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. O‘zbek tilida o‘zlashma terminlardan tashqari, baynalmilal xrakterga ega bo‘lgan terminlar ham alohida o‘rin egallaydi.

AKT terminlari tarkibidagi o‘zlashma terminlarni qo‘llanishiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) Maxsus AKT sohasi tushunchalarini ifodalovchi terminlar: *amaliy dastur, axborotning to‘liq o‘chirilishi, veb sahifalarni bezash, xakker hujjatining turi,*

2) Ilmiy-texnikaviy va AKT sohasida muvoziy ravishda qo‘llanuvchi yoki sohalar aro terminlar: *apparat, kod, tunnel, forum, fotodiod, fotokamera,, dizayn, generator, faza, filtr, format* va boshqalar.

AKT terminologiyasi etimologik jihatdan tavsiflanganda, sohada mavjud bo‘lgan o‘zlashma qatlamning manbalari o‘rganildi va ularning miqdoriy ko‘rsatkichlari aniqlandi. O‘zlashma AKT terminlari negizida hosil bo‘lgan o‘zbekcha terminologik leksik birliklar asosan uch usulda yasalishi aniqlandi:

- 1) Affiksatsiya usuli;
- 2) Sintaktik usul;
- 3) Giprid, ya’ni aralash usuli.

O‘zlashtirish va termin yasash jarayonlari bir vaqtning o‘zida sodir bo‘lishi mumkin.

O‘zbek tilining me’yoriy lug‘ati hisoblangan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” esa yaqinda qayta tahrir etilgan holda nashr etilganligiga qaramay, oldingi nashrlarda mavjud ayrim kamchiliklarning bartaraf etilmaganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Jumladan, tadqiqot obyektimiz bo‘lgan AKT sohasiga oid terminlar misolida shuni ayta olamizki, mazkur izohli lug‘atda keltirilgan zamонавиј so‘z terminlarning ба’зилиари ham tahrirsiz – eski holicha berilgan. Tabiiyki, jamiyat hayotining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan, axborot kommunikatsiya texnologiyalarida tobora keng

<sup>11</sup> Dadaboyev. H. Hozirgi o‘zbek tili qurilishida o‘zbek tilining o‘rni // Tilshunoslikning dolzarb masalalari. Respublika imiy- nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2015. – B. 24-31.

qo'llanilayotgan terminologik birliklar lug'atda keltirilgan – o'zbek tilining umumiy leksik xazinasini aks ettirishi nazarda tutilgan umumiy leksik miqdorga nisbatan kam berilgan.

Lug'at unga kiritilgan lug'aviy birliklar va ularga tuzilgan lug'at maqolalaridan tashkil topgan. Ushbu lug'aviy birliklar umumiste'mol hamda chegaralangan leksikadan tanlab olingan. Bosh so'z sifatidagi lug'aviy birlikka beriladigan izoh – lug'at maqolasini shakllantirishda etimologik ma'lumotlar, ba'zan birlikning talaffuz shakli, adabiy me'yor sifatida uning shartli shakli, qo'shimcha mazmuniy-tavsifiy belgilar keltirilib, uning ma'nosini yoritish uchun illustrativ misollar sifatida badiiy, ilmiy adabiyot, shuningdek, gazeta va jurnal, glossariy materiallaridan foydalanilgan. O'zbek tilining chegaralangan leksikasidan terminlarning tanlab olinishiga oid muayyan mezon lug'at tavsifida keltirilmagan. Bugungi kunda AKT sohasi terminologiya tizimi tashqi va ichki omillar ta'sirida vujudga kelmoqda. Jumladan, ekstralengvistik omillar sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tish mumkin:

- 1) kompyuterlashgan zamonaviy AKT tizimining paydo bo'lishi;
- 2) yangi tushunchalarni ifodalovchi terminlarning yaratilishi;
- 3) AKT lingvistikasiga asos solinishi;
- 4) Axborot tili va terminologiyasini vujudga kelishidagi shart-sharoitlar va zaruriy ehtiyojlarni paydo bo'lishi va shu kabilar;
- 5) Ijtimoiy-zaruriyat tufayli o'zga tillardan tayyor holdagi terminlarni o'zlashtirish va h.k.

Lingvistik omillar sifatida esa quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) O'zbek tili ichki imkoniyatlari asosida terminologiyada qo'l keladigan barcha ifoda vositalaridan to'liq foydalanish;
- 2) Termin yasovchi affikslardan unumli va o'rinni foydalanish orqali tilning termin yasash imkoniyatini oshirish;
- 3) AKT terminlariga xos abbreviatsiya usulida termin yasashning imkoniyati va vositalarini o'zbek tilining terminologiya amaliyotida qo'llash;
- 4) Termin yasashda kalkalash va tarjima qilish usullaridan faol foydalanish.

Terminlarning etimologik-genetik xususiyatlariga taaluqli ma'lumotlarning izohli lug'atda berilishi tilning joriy leksik holati shakllanishiga qaysi tillar ta'siri va aloqadorligi haqidagi tasavvurlar paydo bo'lishiga sabab bo'lishini inobatga olib aytish mumkinki, keng foydalanuvchilar auditoriyasi uchun mo'ljallanagan izohli lug'atlarda terminologik birliklarning xalq tilidan yiroq bo'lgan variantlari faol degan xulosaga olib kelmaslik tilimizga hurmatning bir ko'rinishi bo'la oladi.

Bugungi kunda ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni iste'molga kiritish, zamonaviy atamalarning o'zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo'llanishini

ta'minlash<sup>12</sup> ishlarini jadallashtirish vazifasi muhim masalalardan bo'lgan hozirgi vaziyatda yuqorida biz tomonimizdan keltirilgan AKT terminlarining etimologik tahlili va xulosalarimiz o'zbek tilining yangi izohli lug'atini yaratish jarayonidagi amaliyotda qo'llanishi foydadan xoli emas.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomlik. – M.: Russkiy yazylk. 1981. T.1.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 1-5-jildlar. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.
3. Madvaliyev, A. Izohli lug'atda terminlarning leksikografik talqiniga doir // O'zbek tili va adabiyoti. – 2009.
4. Kadirbekova D.X. Ingliz va o'zbek tillarida axborot texnologiyalari terminologiyasining lingvistik xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. –
5. Hojiyev, A. O'zbek tilining ko'p jildli izohli lug'atini tuzuvchilar uchun yo'riqnomasi. – Toshkent: 2000.

---

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. PF-5850-son. 21.10.2019.